O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi

№ 5 (16459)
2022-YIL
2-FEVRAL,
CHORSHANBA

# YOSHLAR OVOZI

BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Молодежь Узбекистана

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## BILIMLILAR SINOVDAN O'TDI

YOSH KITOBXON

*An'anaviy "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining bu yilgi Sirdaryo va Xorazm viloyati bosqichi o'z yakuniga yetdi. Tanlovning tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar hududiy bosqichda o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdi.*









Yakuniy natijalarga ko'ra, quyidagi ishtirokchilar hududiy bosqich g'olibi bo'ldi.

SIRDARYO VILOYATIDA:
- 10-14 yosh toifasida – Gulsanam Ravshanova;
- 15-19 yosh toifasida – Yorqinjon Hayitboyev;
- 20-30 yosh toifasida – Abrorxon Asatulloyev;

XORAZM VILOYATIDA:
- 10-14 yosh toifasida – Niginabonu Xojiqurbonova;
- 15-19 yosh toifasida – Dilnura Madaminova;
- 20-30 yosh toifasida – Sarvinoz Shomurotova.

G'olib bo'lgan ishtirokchilar qimmatbaho sovg'alar bilan birga, tanlovning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

### 9-FEVRAL — ALISHER NAVOIY TAVALLUD TOPGAN KUN



## TAVSIFI NAVOIY

(Oybekning Navoiysidan ilhomlanib)

*Navoiy – "Muqarrabi hazrati sultoniy(sulton hazratlarining eng yaqin kishisi", davlat arbobi, buyuk olim, shoir, g'azalnavis, vazir, hokim, muhrdor, xalqparvar, adabiyot olamining sultoni. Gar, bu so'zlar davom ettirilajak bo'lsa, ko'p va xo'b xil-xususiyatlarning xazinasi ochilib, bari Navoiyga chippa yopishadi-yu, go'yo butun dunyo bir shag'am yorug'idangina yorishib turgandek holat kasb etadi. Shu sabab Navoiyni uch qirrada namoyon aylamakni joiz bildik. Davlati-siyosatda, ishq-u muhabbatda va ilm-u urfonda.*

Davomi 4-sahifada.

## HAR BIR MAHALLANING IQTISODIY, IJTIMOIY VA ILMIY MARKAZI BO'LADI

*Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-yanvar kuni yoshlar, sport, sog'liqni saqlash, elektr energiyasi sohalaridagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.*

Davomi 3-sahifada.



### BUGUNNING QAHRAMONLARI

## "MAQSADIMIZ KITOB BOZORINI ZAMONAVIYLASHTIRISH"

*Mamlakatimiz so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi, yangi-yangi sohalar paydo bo'ldi. Kitobxonlik va kitob sanoati ham yuksaldi. Bugun yoshlar mutolaa qilayotgan kitoblarning asosiy qismini nashr etayotgan, dunyoning sara asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilayotgan, ularni yurtimizning chekka hududigacha yetkazib berayotgan "Asaxiy books" loyihasi asoschisi Feruz Allayev bilan suhbatlashdik.*

**— Qanday g'oya yoki voqea sabab kitob do'koni ochish qaroriga kelgansiz?**

— O'zbekistonda so'z erkinligi berilgandan so'ng, ko'pincha internetda nimadir muhokama bo'lsa, "mana bu kitobda bunday, bunisida shunday deyilgan" degan fikrlar yozilardi va odamlar "Bu kitob o'zbek tilida bormi?" deb so'rashardi. Ko'pincha yo'q degan javob kelardi. Shu sabab bizda xayriya qilib, o'zimiz yaxshi ko'rgan uchta kitobni o'zbek tiliga tarjima qilish fikri paydo bo'lgan. Keyin kitob bozori va kitoblarni o'rgansak, 3 ta kitob chiqarganimiz bilan umumiy kitobxonlik, kitob bozoridagi vaziyat o'zgarib qolmasligini tushundik. Shundan so'ng bizda juda



katta kitob loyihasi qilib, kitobxonlikni rivojlantirish, kitob bozorini zamonaviy darajaga olib chiqish g'oyasi paydo bo'lgan.

Davomi 5-sahifada.

MUNOSABAT

*Xalqimiz Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" tamoyili asosida shaxdam odimlayotgan, yaratuvchanlik ruhi bilan yashayotgan bir paytda, 2022-yil 19-yanvar kuni "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi ayni muddao bo'ldi.*

# YUKSAK SHARAF VA CHEKSIZ MAS'ULIYAT

Mamlakatimizda kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlar masalasi yana bir karra davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, yurtimiz aholisining salmoqli qismini yosh avlod tashkil etadi.

Xalqimiz yoshlarning tarbiyasiga, komil inson sifatida o'sishiga katta e'tibor bilan qaragan. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lishning o'zi kamlik qiladi. Mazkur masalani ijobiy hal qilishning eng maqbul yo'llaridan biri, shubhasiz, mahalla bilan hamkorlik qilishdir.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" kabi hikmatlar bor. Buning zamirida yosh avlod tarbiyasida oila va mahallaning roli juda muhim ekani mujassam. Shunday ekan, doimo davlatning kichik qo'rg'oni sifatida oilaning mustahkamligi uchun harakat qilingan.

Milliy qadriyatlar va an'analarimiz mohiyatini to'g'ri anglab, ularni hayotga tatbiq etish maqsadida oliy o'quv yurtlari bilan mahallaning o'zaro aloqasini mustahkamlash ko'zlangan maqsad sari muhim qadam bo'ladi.

Mazkur hujjatni Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lmish yigit-qizlarimizga nisbatan navbatdagi g'amxo'rlik sifatida qabul qilish mumkin.

Odatda mahalla qo'mitasida ishlaydigan xodimlarning ko'pchiligi ulug' yoshli bo'lganliklari uchun ham yoshlar botinib, ularga murojaat qilgani iymanadi. Mahallada yoshlar bilan ishlovchi alohida xodimning, aniqrog'i yoshlar yetakchisining bo'lishi muammolarning ijobiy hal etilishini ta'minlaydi, deb o'ylaymiz.

"Yoshlarning bo'sh vaqti – dushmanning ish vaqti", degan naql bor. Ertamiz egalarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda turli sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy kecha va uchrashuvlarning o'tkazilishi, albatta, o'z samarasini beradi. Ayniqsa, alohida iqtidor va iste'dod egasi bo'lganlarga e'tiborning kuchaytirilishi, ko'rik-tanlovlar g'oliblarining rag'batlantirilishi ham muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihati shundaki, Prezidentimiz qarori bilan oliy ta'lim muassasalarining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlariga birinchi prorektor maqomining berilishi masalaning naqadar muhimligini ko'rsatib turibdi. Bu sohada faoliyat olib borayotgan mas'ullar uchun katta sharaf va cheksiz mas'uliyat hamdir.

Biz Namangan davlat universiteti jamoasi davlatimiz rahbarining qarorini o'z vaqtida qabul qilingan tarixiy hujjat sifatida baholaymiz va u kelajakda yoshlar orasida juda ko'plab iqtidor egalarining tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Narimon DEHQONOV,**
**Namangan davlat universiteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori.**
**O'zA**

# HUNARNI ASRABON NETKUMDIR OXIR...

***Tarixdan ma'lumki, ota-bobolarimiz turli xil kasb va hunarlarni o'rganib, yurtimizning dovrug'ini dunyoga tanitganlar. Xalqimizda "Hunarli inson xor bo'lmas" hikmati bejiz aytilmagan.***

Ayniqsa, yoshlarning kasb-hunar o'rganishi — kelgusida ularning hayot tarzi yanada yaxshi bo'lishi bilan birgalikda, Vatanimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yagona omil hisoblanadi. Bu haqda gap ketganda yoshlar bugungi kunda o'rganishi mumkin bo'lgan kasb-hunarlarga e'tibor qaratish joiz. Prezidentimiz tashabbusi asosida mamlakatimizda yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bulardan "Yoshlar: 1+1" dasturi doirasida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, yoshlarning innovatsion, amaliy istiqbolli startap loyihalariga grant mablag'larini ajratish yoki "Har bir tadbirkor — yoshlarga madadkor" tamoyili va boshqa ko'plab dasturlar yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlari yanada kengayishiga, tadbirkorlik faoliyati yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Buyuk mutafakkir shoirimiz Hazrat Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhod:

*Hunarni asrabon netkumdir oxir,*
*Olib tufroqqamu ketkumdir oxir,*

deya butun bashariyatga murojaat qiladi. Men ushbu misralarni bevosita yoshlarga qaratilgan, deb hisoblagan bo'lardim. Bu yerda Navoiy bobomiz Farhod tilidan gapirib, yoshlarni hunar egallashga, hunari bilan el-yurtga naf keltirishga chorlagandek, go'yo.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'tgan yili Konstitutsiyamiz qabul qilinganining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan xalqimizga tabrik yo'lladi. Jamoatchiligimiz tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilayotgan ushbu tabrikda Prezidentimiz Konstitutsiyamizni yangilashdek o'ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Davlatimiz rahbari yoshlarning bugungi kunda Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida maydonga chiqayotganini ta'kidlab, Konstitutsiyamizda yoshlarning huquq va manfaatlarini to'la ta'minlash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlari konstitutsiyaviy darajada o'z aksini topishi kerakligini beshinchi konstitutsiyaviy zarurat sifatida ko'rsatdilar va bu biz, yoshlarni nihoyatda quvontirdi.

Inson huquq va erkinliklari e'zozlangan yurtda doimo o'sish, o'zgarish va rivojlanishlar bo'ladi.

Albatta, biz, yoshlar davlatimiz tomonidan berilayotgan ko'plab imtiyozlardan foydalanishimiz kerak. Chunki har bir islohotga biz daxldormiz. Bizning bugungi bosgan har bir qadamimiz kelajagimizni, ertangi kunimizni belgilab beradi.

Xulosa qilib aytsak, Yangi O'zbekistonni bunyod qilishda biz, yoshlar tayanch bo'lishimiz, islohotlarda ko'magimiz zarurligini anglashimiz darkor. Zero, inson qadri yuksalayotgan yurtda yoshlar kelajagi porloqdir.

**Oxunjon SABUROV,**
**Adliya vazirligi huzuridagi Toshkent shahar yuridik texnikumining 2-bosqich o'quvchisi**

# TOSHKENT SHAHRIDA MAHALLABAY ISHLASH BO'YICHA KO'RSATMALAR BERILDI

***Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-yanvar kuni Toshkent shahrida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.***

***Dastlab aholi hayot darajasini mahallalar kesimida o'rganish natijalari haqida ma'lumot berildi.***

Ma'lumki, dunyoda Inson taraqqiyoti indeksi bor. U aholining hayot sifati, savodxonlik darajasi va umri davomiyligini qiyosiy baholaydigan ko'rsatkichdir. Bu davlatimiz rahbari ilgari surgan "inson qadrini ulug'lash" g'oyasi bilan hamohang.

Shundan kelib chiqib, Toshkent shahrida Inson qadri indeksini joriy etish bo'yicha taklif tayyorlangan. Buning uchun Chilonzor, Uchtepa, Sergeli va Yunusobod tumanlaridan bittadan mahalla tanlab olinib, aholi o'rtasida 56 xil masala bo'yicha so'rovnoma o'tkazilgan. Bu orqali mahallada qaysi soha oqsayotgani, odamlarda nimalarga talab borligi aniqlangan.

Taqdimotda shunday tahlilni sinov tariqasida poytaxt mahallalari kesimida yo'lga qo'yish, uning natijalariga qarab, muayyan hududga e'tiborni kuchaytirish taklifi bildirildi.





– Buning mezonlari qanday bo'ladi? Olti oy yoki yil yakunida nimaga erishiladi? Shuning uchun ilmiy asoslangan tizim kerak. Shahar hokimligida Situatsion markazga o'xshash tahlil markazi tashkil qilish, dasturiy mahsulot yaratish zarur. Mahallabay ishlash oson emas, zimmamizga katta mas'uliyat olyapmiz. Bu tizim qaysi mahallaga, qaysi ko'chaga birinchi bo'lib kirishni ko'rsatib berishi kerak. Hamma ishlarni jamoatchilik bilan maslahatlashib, mahalliy Kengashlarda tasdiqlab, tartib bilan bajarish zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Indeks loyihasini mutaxassislar bilan muhokama qilib, har tomonlama takomillashtirish, sektor rahbarlariga bu tizimni o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berildi. Bu ularning o'z ish uslubini o'zgartirishga undashi ta'kidlandi.

Taqdimotda investitsiya va eksport masalalari ham ko'rib chiqildi.

Xususan, bu yil poytaxtimizda 738 ta loyiha bo'yicha jami 3 milliard 800 million dollar investitsiya o'zlashtirilishi qayd etildi. Shundan 2 milliard dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyadir. 500 ta loyiha joriy yilning o'zida ishga tushirilib, 27 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi.

Investitsiya loyihalarini mahallalar kesimida shakllantirish choralari, bu sohada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar haqida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahrining moliyaviy, iqtisodiy imkoniyatlari kengligini, hududiy loyihalarni ko'paytirib, har bir tumanga qo'shimcha 100 million dollar jalb qilish mumkinligini ta'kidladi.

Tashqi savdo borasida ham "o'sish nuqtalari" belgilab olingan. Xususan, joriy yilda Toshkent shahri eksporti 1 milliard 400 million dollar bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, 2026-yilga borib bu ko'rsatkichni 2 milliard 500 million dollarga yetkazish mo'ljallangan.

Yirik xalqaro brendlarni jalb qilish orqali ham ichki bozor talabini qondirish, ham eksportni oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Videoaloqa orqali tuman hokimlari va sektor rahbarlari bilan mahallabay ishlash masalalari yuzasidan muloqot bo'ldi.

**O'zA**

# HAR BIR MAHALLANING IQTISODIY, IJTIMOIY VA ILMIY MARKAZI BO‘LADI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

28-yanvar kuni maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular o‘rtasida sportni ommalashtirish bo‘yicha qator ko‘rsatmalar bergan edi. Taqdimotdagi loyihalar shuning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Mutasaddilar avvalgi topshiriqlarga muvofiq, bu borada mahalla va maktablardagi sharoitlar o‘rganilgani haqida axborot berdi. Qayd etilganidek, yurtimizdagi 9 ming 309 ta mahalladan 763 tasida sport obyekti, 6 mingdan ortig‘ida kutubxona yo‘q. Shuningdek, 10 ming 130 ta maktabdan 2 mingdan ziyodida sport zali, 22 tasida kutubxona mavjud emas.

Bu joylarda sport maskanlari va kutubxonalar barpo etish bo‘yicha 3 xil tipdagi loyiha taklifi ishlab chiqilgan. Birinchisida kitob javonlari va sport qurilmalari o‘rnatish, ikkinchisida ochiq sport maydonlari hamda uchinchisida yopiq inshootlar barpo etish nazarda tutilgan.

Davlatimiz rahbari bu loyihalarni ma’qullamay, qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berdi.

– Tasavvur qilinglar: qishloqlarda oddiy odamlarga nima kerak, yoshlarga nima kerak? Bolalar kechqurun nima o‘ynaydi? Yoshi kattalar qayoqqa borib suhbatlashadi? Shularni o‘ylab, xalqimiz xohishini inobatga olib, loyiha qilish kerak. Masalan, mahallada maktab, stadion bor. Shuning yonida sun’iy qoplamali mini-futbol maydoni, basketbol, stol tennisi, shaxmat-shashka uchun joylar tashkil etish mumkin. Bunga kerak hamma narsa o‘zimizda ishlab chiqarilayapti.

Ikkinchidan, shu joylarda kutubxona, kompyuterxona, oshxona, hammom qursa bo‘ladi. Kelgusida shifokor punktlarini ham joylashtirish mumkin. Umuman, bu orqali ham xizmatlar rivojlanadi, ham odamlar rozi bo‘ladi. Har bir mahallaning mana shunday iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy markazi bo‘lishi kerak, u yerda hayot qaynashi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shundan kelib chiqib, loyihani takomillashtirish, mahalla markazlarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Buning uchun tadbirkorlarga imtiyoz beriladi va evaziga ijtimoiy mas’uliyat yuklanadi. Kunning ma’lum soatlari mahalla yoshlari uchun tekinga ajratiladi. Egasi bo‘lgani uchun tadbirkor ham daromad topadi, majmua ham qarovsiz qolmaydi.

Taqdimotda maktablar qamrovini oshirishga oid loyihalar ko‘rib chiqildi.

Ma’lumki, kelgusi besh yilda yurtimizda 1 million 200 ming o‘quvchi o‘rni tashkil etish zarur. Shu bois davlatimiz rahbari yangi maktablar qurish va mavjudlarining quvvatini oshirish bo‘yicha topshiriq bergan edi. Shunga asosan, 330, 660, 990, 1320 va 1650 o‘rinli maktablar loyihasi tayyorlangan. Bunda qo‘shimcha bino, ko‘p funksiyali zal, sanitariya-gigiyena xonalari qurish, zamonaviy laboratoriya, interaktiv doska, qulay o‘rindiqlar bilan jihozlash kabi barcha jihatlarga e’tibor qaratilgan.

Davlatimiz rahbari mutaxassislar bilan har bir maktabning asosi va devori holatini o‘rganib chiqish zarurligini ta’kidladi.

– Buni nima uchun aytayapman? Iloji boricha, hozirgi maktablarning o‘zini kengaytirish kerak. Chunki bolalar ham, o‘qituvchilar ham o‘sha joyga o‘rgangan. Mahallaning o‘rtasida boshqa bo‘sh yer yo‘q. Chekka joydan qursak, borib-kelishga transport kerak, bolalar qatnashga qiynaladi. Shuning uchun maktablarning o‘ziga qo‘shimcha qavat yoki yonidan bino qurish maqsadga muvofiq, – dedi Prezident.

Holatiga qarab, har bir maktabga alohida yondashish, aholi demografiyasini inobatga olib, qayerda necha qavatli bino qurishni hisob-kitob qilish bo‘yicha topshiriq berildi.

Shavkat Mirziyoyev o‘tgan yili onkologiya tibbiyot markazi loyihasi bilan bir necha bor tanishib, qator topshiriqlar bergan edi. Bugun shu bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berildi.

Markaz binosi 10 qavatli, 650 o‘rinli bo‘ladi. 16 ta jarrohlik xonasi, 45 bemorga mo‘ljallangan reanimatsiya xonasi, davolash va tashxis bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kuniga 100 kishiga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega statsionar faoliyat yuritadi. Bugungi kunda binoning poydevorini tayyorlash boshlangan.

Davlatimiz rahbari markazni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, bunda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Taqdimotda elektr energiyasi quvvatlarini kengaytirish chora-tadbirlari ham muhokama qilindi.

Ma’lumki, shu yil 25-yanvar kuni mintaqamiz elektr ta’minotida texnik uzilish sodir bo‘ldi. Bu barcha elektr stansiyalarga ta’sir qilib, favqulodda vaziyat yuzaga keldi.

Bunga bir qancha sabablar bor. Jumladan, yagona energetika tizimi 220-500 kilovoltli magistral elektr tarmoqlar orqali to‘liq halqalashtirilmagan. Shimoli-G‘arbiy va Janubi-G‘arbiy energouzelning asosiy qismida 500 kilovoltli tarmoqlar yo‘q. Ba’zi magistral tarmoqlar qo‘shni davlatlar hududi orqali o‘tgan.

Shu bois, mamlakatimizda 500-750 kilovoltli tarmoqlarni qurish orqali yagona halqa tizimini hosil qilish rejalashtirilmoqda. Xususan, 2026-yilga borib, jami generatsiya quvvatlarini 27 ming 400 megavattga, yillik ishlab chiqarish hajmini 110 milliard kilovatt soatga yetkazish mo‘ljallangan. Shunda yurtimizning barcha hududlari 500-750 kilovoltli tarmoqlar orqali mustahkam bog‘lanadi va bir butun tizim yaratiladi.

Prezidentimiz elektr energiyasi tizimini isloh qilish, qo‘shni davlatlar bilan sohadagi hamkorlikni davom ettirish va rivojlantirish zarurligini ta’kidladi. Elektr energiyasi quvvatlarini oshirish hamda uni yetkazib berishni avtomatlashtirish bo‘yicha qaror loyihasini tayyorlashga ko‘rsatma berildi. Bundan asosiy maqsad elektr energiyasi tizimini barqaror qilib, xavfsizligini mustahkamlash, xalqimizni bu muhim manba bilan uzluksiz ta’minlashdir.

**O‘zA**

SEMINAR

# YOSHLAR YETAKCHILARI YANGI BILIM VA KO‘NIKMALARGA EGA BO‘LDI

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida Davlat xizmatini rivojlantirish, Yoshlar ishlari agentligi, tegishli vazirlik, idora hamda tashkilotlar bilan hamkorlikda mahallalardagi yoshlar yetakchilari uchun onlayn o‘quv seminar bo‘lib o‘tdi.***

Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, yurtimizdagi mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. O‘quv seminarda ishga qabul qilingan 9 mingdan ortiq yoshlar yetakchilarining mutasaddi tashkilotlar xodimlari hamda Davlat boshqaruvi akademiyasi professor-o‘qituvchilari tomonidan mahallalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tushuntirish va samarali faoliyat ko‘rsatishni ta’minlash bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalari oshirildi.



Jumladan, yoshlar bilan samarali muloqot olib borish mexanizmlari, mahallada madaniy tadbirlar tashkil etish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, imkoniyati cheklangan yigit-qizlarning ijtimoiylashuviga keng sharoitlar yaratish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish kabi qator mavzularda ma’ruzalar tinglandi. Yoshlarga beriladigan 13 turdagi yordam bevosita yoshlar yetakchisining tavsiyasiga binoan ko‘rsatilishi tartibi tushuntirildi.

Yoshlar yetakchilari mazkur yangi tizimning tub mohiyati, maqsad va vazifalari haqida kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ldi.



**Yoshlar ishlari agentligi axborot va media xizmati**

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана



# TAVSIFI NAVOIY

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

### I. DAVLATI-SIYOSATDA

Alisher yoshlik chog‘laridanoq Amir Husayn Boyqaroga jon-yo‘ldosh, qiyomatli do‘st tutinadi. Shul sabab har ishda birga bo‘ldi. Uzoq va mashaqqatli yo‘llardan birga omon chiqishdi. Alisher davlat ishida vazir-u hokim rutbalarida faoliyat yuritdi, yomonliklarga, fisq-u fujurga, ig‘vo va chirkinliklarga qarshi kurashuvchi sher bo‘ldi. Adolatni, haqni va xalqni har nedan ustun bildi. Hatto shohlar ham shu uchni muqarrar bilmog‘i kerak, yo‘qsa davlat johiliyat botqog‘i birla qorishmoqqa mahkum bo‘lg‘ay, deya uqtirdi. Mamlakatni obod-u nurafshon qildi. Injil shahri yaqinidagi cho‘llarni, qaqragan yerlarni “Ixlosiya, Shifoiya va Unsiyasi”[1] bilan jannatga aylantirdi. Yetim-yesirning, beva-bechoraning boshini siladi. Qurdirgan xonaqohi yonida xalq uchun har kecha et va osh tayyorlab tarqatdi. O‘zining dardida emas, ahli-muslimning, ahli-fuqaroning dardida yashadi, yondi.

Har ishda qonunlarni, Allohning kalomini oliy mezon deb bildi. Nohaqqa haqiqatni, haqqa halollikni uqtirdi. Haqgo‘y Navoiy siyosatda davrning Majididdin, Nizomulmulk, Amir Mog‘ul singari qora amaldorlarning qarshiligiga uchradi. To‘g‘onbek singari tulkilarning hiylalari ichra kurashdi, shuning panjasi qanchalar kuchli ekanini har jabhada ko‘rsatdi.

Bir oz muddat ona shahri Hirotdan Astrobodga, chirk bosgan viloyatga haydalmog‘iga ham to‘g‘ri keldi. Ammo Navoiy borgan yerini ham guliston qildi. Uning qadami tekkan yurt obod, xalqi esa haqiqat oftobidan bahramand bo‘lar edi. Shu jihatdan uning nomi Hindi-Xitoyga yetdi, mag‘rib va mashriqni zir titratdi. Astrobodga “surgun” qilingan yillarini Navoiyning chizgan rasmi orqali yaqin oshnosi Xoja Afzal ila shunday ta’rif etishdi: “Qamoqdagi sherning g‘ayrati, erkinlikdagidan ko‘ra hadsiz oshibdi”. Sababi Navoiy ichidan olov bo‘lib yonayotgan, his qilayotgan holatini, Vatandan olisda qolgan vaziyatini ikki panjasi zanjirband sher misolida mohirlik bilan chizgan edi...

Kundan-kun yuragi Vatan sog‘inchidan yaralangan sher, bir na’ra ila zanjirlardan ozod bo‘ladi-yu, Hirotni hokimiyat tepasiga kelgan itlardan, o‘laksalardan tozalay boshlaydi.

Og‘ir vaziyatda amirlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi posbon bo‘ldi. Ilm zakosi ila Husayn Boyqaroga va uning ojiz farzandlariga ham haq yo‘lni ko‘rsatishga tirishdi, uddaladi.

Alisherni o‘ziga eng ashaddiy dushman bilgan Majididdinning qulbachchasi To‘g‘onbek birla bildirgan bir fikri Navoiyning qanday inson ekanini anglatadi: “Umrimdagi eng katta xato, Alisher Navoiyga dushmanligim bo‘ldi. Men 20 yildan ortiq Alisherga qarshi harakat qildim, ne ishlar qilganim sizga ma’lum – Alisher yuragi toza odam edi”.

– Tog‘ri, – dedi To‘g‘onbek boshini quyi solib, – Alisher Navoiy tulkilikni bilmaydi. Yuragi obdan sof odam...

### II. SEVGI-MUHABBATDA

Ko‘pchilik Alisher Navoiyni oila qurmagan, zurriyot qoldirmagan, degan fikrda yuradi. Navoiyning sevgisi faqatgina yaratganga bo‘lgan ishqida, ijodida, xalqida ediki, bu go‘zallikning oldida hech bir ayol hilqati ustun kela olmas edi. Lek Alisher sevgi-muhabbatni, yurak tug‘yonlarini yaxshi tushungan nozik qalb egasi bo‘lgan. U ishq yo‘lida hech qanday yovdan qo‘rqmas, sevgini haqning inoyati, unda qilingan har ish yaratganning amridan deb bilgan Alisher Oybekning “Navoiy” romanida bitilgan Arslonqul va Dildorni o‘z sevgisiga yetishishida bor kuchi-qudrati, davlati oliyadagi hurmat e’tibori-yu, ulug‘ rutbalari hamda Allohning ishqiga bo‘lgan kuchli iymoni ila ikki oshiq qalbni birlashtiradi.

O‘z hamrohlari bilan shoh bazmidan qaytayotganda esa, ko‘chada jonsiz tanaga ko‘zi tushadi, bu Hirotning go‘zal, suluv va dono qizlaridan ekanini biladi. Ishqi-jununlikda oshiqlardan biri uning joniga qasd qilganini aniqlaydi. Ilohiy ne’matga xiyonat har nedan og‘ir jazoga loyiq deb biladi. Jon qotillari valiyahd-shaxzodaning xos navkari, biri esa Majididdinning yaqinlaridan bo‘lishiga qaramay zindonband etishga tirishadi va erishadi.

Shu bilan birgalikda uning mehrli katta yuragi bor edi. Sababi kunlarning birida, bahor payti, katta sayl, ov qilinayotgan chog‘da, poytaxtga qaytish talab etiladi. Shu onda Navoiy Xoja Hasanning chodirida polaponlari tuxumni ochib chiqishini kutayotgan musichani ko‘rib qoladi. Hamda Xoja Hasanga bu yerdan bir qadam ham ketmasligi, musichaning xavfsizligini ta’minlashini, qush bolalab, polaponlar qanot yozsagina, qaytishga ruxsat berajagini uqtiradi. Bu ish uchun unga katta miqdorda hadya berishini aytganining o‘zi ham Navoiy butun olamning mehr-u muhabbatini bir qalbda mujassam etgan ulug‘vor shaxs ekanidan dalolat berajak.

### III. ILM-U URFONDA

Alisher Navoiyni bu borada ta’riflash har bir inson uchun o‘ta og‘ir ish. Payg‘ambarlarga vahiy tushishi qirqni qarshilaganda, ya’ni mukammal yoshda nozil bo‘lgani e’tiboridan qarasak, Navoiyda Xamsa bitmoq maqsadi ham 40 yoshida paydo bo‘lgandi (bunda ilohiy ne’matlarni yaratmoq Alloh in’om etsa mukammal yoshda nasib bo‘lgay ma’nosida). Zero, ijod – “yaratish”, “yangilikni kashf etish” demakdir.

Navoiy yashagan yillari Binoiy, Shaxobiddin singari ilmda faqat forsiyni ma’qullovchi, turkiydan ikki bayt g‘azal aytilsa, qulog‘ini burajak olimlar davrida ijod qilishga majbur bo‘lgan. Hech kim, hatto turkiylarning o‘zi ham turkiy tilning boyligiga shubha qiluvchi, hatto vaziyat tug‘ilsa, voz kechish darajasiga yetgan bir paytda katta sahnga chiqdi. Hamda Mir Alisher — turkiy tilning go‘zalligini butun olamga yoygan, bu tilda ham go‘zal ash’orlar bitish mumkin ekanligini ham amaliy, ham nazariy jihatdan isbotlagan “Navoiy” — Forsiy tilni besh panj ila ag‘dargan “Foniy” nomi birla tarixga kirdi. Navoiy zullisonayn shoir bo‘lganidan har ikki tilning qudratini yaxshi bilar, Forsiy qancha qudratli bo‘lmasin, Turkiy til oldida lochin iskanjasida ojiz qolgan musichadek deb bilardi. U Turkiyda “Xamsa” va “Chor devon” yaratdi. Undan tashqari ikki tilni solishtirib, turkiy tilning kuchini namoyon qildi. “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni yozib, go‘yo fors pahlavoni qay boyligi bilan chiranmasin, o‘zbek botiri uni qizartirib qo‘yajagini dalillar asosida isbotladi. Bunday aql-zakosi butun Ovrupa, Hindi-Xittoy, Misr-u Rumni hayrat o‘tiga tashladi. Uni eshitmagan, asarlaridan bahramand bo‘lmagan jon qolmadi. Ba’zilar ochiqchasiga turkiy tilning eng boy til ekaniga amin bo‘lgan bo‘lsa, ba’zilar mag‘rurlik sabab tan olmasa ham, qalban va aqlan tushunib yetgan edi va boshqa til borasidagi tortishuvlardan o‘zini uzoq tutajak bo‘ldilar. Alisher, bu besh panjining zarbi ilmi-adabiyotni, olam tillarini, g‘azaliyot dunyosini zir qaqshatib yubordi.

Gar Navoiy davlat ishlari birla, xalq dardi uchun umrining eng qimmatli vaqtlarini sarf qilmaganda edi, ehtimol, turkiy tilda mislsiz, takrorlanmas, aqlni shoshirar darajada xazina yaratib, butun dunyo birtilikka mahkum bo‘lishi hech gap emas edi. Bu borada Alloh o‘zgalarga rahm aylagan, inoyat ko‘rsatgan, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Sababi Navoiy o‘ziga ajratgandan ko‘ra ko‘proq vaqtini el-ulus ijodi, kambag‘al xalqning ichida yotgan ilm-u xazinalarni izlashga sarfladi. Shu sabab uning shogirdlari benihoya ko‘p edi. Bulardan Sultonmurod va Kamoliddin Behzod singari ulug‘ musavvirlar va olimlar yetishib chiqqan. Agar Mir Alisher ularning iste’dodini favqulodda sezmaganda, moddiy qo‘llab-quvvatlamaganda, ular bunday ulug‘ darajotlarga yetishmagan bo‘lardilar. Nega desangiz, Navoiy o‘zi qurdirgan “Unsiyada” necha-necha uchrashuvlar o‘rkazmadi deysiz, har kelgan insondan bir iste’dodni qidirgan bu zot, ularning kamoli uchun har chorani qo‘lladi.

“Ixlosiya”da dunyoga kelgan go‘zal g‘azallarni, hatto kichik misralarnida yuqori baholab, masjid, maqbara eshiklariga ildirdi. Ma’rifatparvar Navoiy qalam birla ne-ne sultonlar, amirlar, bekzoda-yu sarkardalar qila olmagan ishni, ya’ni ona diyorini, el-ulusini, dehqondan tortib, kosiblariga qadar ilm ziyosini sochdi. Qilich bilan egallanmagan, bo‘ysundirilmagan xalqlar, ulug‘ sultonlarning qalbiga qalam qudrati ila kirib borib, ularning chuqur hurmat va ehtiromini zabt eta oldi. Hamda samo toqiga so‘nmas quyosh, yer yuzida esa xalqparvar sher, tarix zarvaraqlariga esa Nizomiddin Mir Alisher nomi bilan so‘nmas iz qoldirdi.

**Otabek ABDUMALIKOV,**
**O‘zJOKU 2-bosqich talabasi**





# Золотых дел мастер

КРАСИВАЯ ПРОФЕССИЯ

***Вы знаете, как связан Международный день ювелира с Узбекистаном? Профессиональный праздник учрежден в 2008 году на конкурсе молодых ювелиров в Ташкенте. Почему 31 января? Именно в этот день «золотых дел мастера» получают клейма на свои работы.***





Постановление Президента «О мерах по созданию благоприятных условий для дальнейшего развития ювелирной промышленности» от 22 февраля 2021 года дало новый стимул тем, чья продукция долгие годы живет рядом с нами, передается из поколения в поколение. Без нее, как правило, не обходятся самые значимые торжества: юбилеи, помолвки, свадьбы...

За внешним блеском витрин и парадностью украшений скрывается утомительный процесс, требующий колоссального терпения и аккуратности. Труд, не допускающий суеты, сочетающий рутину и вдохновение. Чтобы стать ювелиром, необходимо иметь желание и усидчивость. Эти качества важнее фантазии, которую зачастую диктует спрос.

31-летний **Жалолиддин Тохтаходжаев,** член Ассоциации ювелиров Узбекистана, словно руководствуется народной мудростью «Молчание – золото». Говорит скупо и мало. Но тем интереснее узнавать секреты профессии, украшающей жизнь.

– Я ювелир в первом поколении, – рассказывает Ж.Тохтаходжаев. – Однажды ноги сами привели меня к мастеру. Понаблюдал и попросился в ученики. Думаю, учиться непосредственно в процессе работы – самый быстрый способ постижения профессии. Здесь все зависит от внимания и усердия. Теоретических знаний набираешься параллельно. Главное – практика, чувствовать металл и драгоценные камни, находить в них гармонию.

Обучение было недолгим. Где-то пару месяцев. Потом наставник уехал – мне пришлось искать других, осваивать ремесло самостоятельно. Получилось. Создал свой бренд и стал его продвигать. В настоящее время работаю в собственной мастерской, там же находится наш небольшой магазин, обучил ребят. Сформировался слаженный механизм в дружеской обстановке.

Название драгоценного металла присутствует и в определении жизненных принципов заргара: старается придерживаться золотой середины. А еще он озвучивает такие правила: «Важно верить и быть справедливым, не осуждать других. Необходимо, сохраняя традиции, стремиться к прогрессу и создавать новое».

Ювелир священнодействует в окружении множества инструментов, все они должны быть под рукой: лобзики, напильники, паяльники, горелки, чеканы, дрели, иглы, пинцеты... Есть еще приспособления, похожие на маленькие бормашины. А сама профессия объединяет множество специализаций: монтировщик, закрепщик, филигранщик, цепочник, гравер, художник, огранщик, шлифовальщик, эмальер... И конечно, не обойтись в создании красоты без дизайнера.

Огромный список технических приемов не всегда говорит о чем-то обычному человеку. Для специалиста это либо образ произведения прикладного искусства, либо ступень его обработки. Ковка, литье, художественная чеканка, тиснение, гравировка, филигрань, финифть, инкрустация, травление, полировка и другие, в результате чего получается чудо-изделие. Ювелир – профессия, совмещающая художественный вкус и математическую точность ума. Наш герой выделяет для себя пайку и работу с огнем, закрепку камней. Особо вдохновляется, когда предстоит делать украшение с механизмами, сложные, на космическую тематику.

За внешним блеском витрин и парадностью украшений скрывается утомительный процесс, требующий колоссального терпения и аккуратности. Труд, не допускающий суеты, сочетающий рутину и вдохновение.

От Жалолиддина узнали, что чистое золото очень мягкое, из грамма можно вытянуть нить длиной более трех километров. Если представить, что украшение сделано из чистого золота, то оно просто сомнется при малейшем движении. Серьги, браслеты, броши и другие изделия производят из сплавов, а проба – процентное содержание в них драгоценного металла: скажем, 585-я означает 58,5 процента.

– Больше всего нравится работать с золотом, – признается ювелир, – мягкий благородный металл – материал загадочный. Его можно познавать всю жизнь и открывать для себя новые возможности и исторические факты. А натуральные камни – живые. Скажем, алмазы (бриллиант – это алмаз после соответствующей обработки) появились четыре миллиарда лет назад. Ничего подобного наша планета уже не создаст. Разве не интересно прикасаться к древнейшей истории Земли?!

Чаще всего изготавливаем комплекты. Особенно популярен жемчуг, бриллианты. Смело могу утверждать: в каждом изделии – частичка души его создателей. Представьте, какой энергетикой наполняется драгоценность, когда делаешь ее для родного человека. Естественно, вкладываешь всю любовь, уважение, заботу. Супруге дарю собственные эксклюзивные изделия.

Когда у меня просят совета при выборе камней для украшений, обычно безошибочно подсказываю нужный. Не знаю, как это получается. Может, у нас есть какое-то родство: камень тоже чувствует трепетное отношение к себе.

Современные технологии входят и в ювелирное дело, уникальность которому сообщает именно ручная работа, столь любимая Жалолиддином.

– Почти все изделия на заказ рисуем в 3D-программе, печатаем на специальном принтере и потом уже делаем обработку, – поясняет мастер. – 3D-графика позволяет придавать любые формы.

* * *

*Солнышки из бриллиантов, кулоны-аноры, тюльпаны и лилии, открытые кольца-каффы и с цепочками, широкий спектр топовых обручальных, браслеты в форме змея, разнообразные помолвочные колечки – фантазия мастеров безгранична. Ведь они создают красоту!*



**Полина ЛАНСКАЯ**

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI


# ВДОХНОВЕНИЕ ЗА ШАХМАТНОЙ ДОСКОЙ



## ЗНАЙ НАШИХ!

***Предновогодние хлопоты у узбекистанцев – любителей шахмат уступали позиции главным новостям из Польши: страна болела за своего героя. Приковал внимание поклонников интеллектуальной игры одиннадцатиклассник из школы №152 Яшнабадского района столицы.***

***Настоящим праздничным фейерверком стала победа Нодирбека АБДУСАТТОРОВА над Яном Непомнящим в тайм-брейке, который решал судьбу участников первенства. В результате наш соотечественник признан самым молодым чемпионом мира по рапиду.***

***В беседе с лауреатом Государственной премии «Мард углон» проследим путь целеустремленного шахматиста от детского увлечения до результативных международных баталий.***

**– Чтобы зародилась любовь к какому-то виду спорта, нужно оказаться в нужное время в нужном месте. Увидеть, прочувствовать, вдохновиться. Твое увлечение, ставшее судьбой, особое. Представляет состязание интеллектов, логики, умения прогнозировать ситуацию. Где истоки этого прочного и верного чувства?**

– По-моему, шахматы невозможно не полюбить. Привлекает магия ходов, на доске разыгрываются такие сражения! Одно скоропалительное решение способно привести к поражению, и, наоборот, тщательно обдуманное может спасти почти безнадежную (испытал на себе) ситуацию. В этом волшебство шахмат, их привлекательность. Ощущаешь себя полководцем, стратегом, который командует послушным войском. Эта игра еще и прекрасный помощник в освоении математики. Вы встречали шахматиста, которому не дается царица наук? Наверняка нет.

Все началось с наблюдения. У нас шахматные фигуры – полноправные члены семьи. Брат и сестра посещали кружок, вечером играли между собой или с отцом, когда тот бывал дома. Военнослужащему (то задерживается допоздна на службе, то в командировке) трудно выкроить время для продолжительной партии, однако нашему папе было всегда очень важно общаться с детьми именно таким образом. За шахматами возникает особое понимание. Если он освобождался пораньше, сразу на столе появлялась доска. Хумоюн и Бахора по очереди становились то партнерами старшего игрока, то болельщиками. А я, тогда еще детсадовец, смотрел во все глаза и запоминал, как ходят фигуры, какую роль играют в битве, самостоятельно изучал правила. Как-то из-за шахматного кружка меня с опозданием забрали из детского сада, а потом, к счастью, решили брать с собой. Там поле наблюдения расширилось и захотелось попробовать самому.



Основы освоил быстро и стал просить, чтобы меня тоже возили к тренеру, который, увидев мое любопытство, вовсе не был против. С Равшаном Шукуровым, первым наставником, занимались с 2008-го по 2012 год. С четырех с половиной лет. Сначала занятия были три раза в неделю, потом два раза в день. Засыпал в автобусе. Наша мама – герой: выдержала такую нагрузку, ни разу не пожаловавшись на усталость. Иногда ей приходилось помогать мне с заданиями, сам старался изо всех сил. Она всегда была рядом, контролировала режим дня, давала советы. Мои успехи – это в определенной степени мамина заслуга, организаторский талант. Где бы я ни былв связи с международными турнирами, создавала благоприятную атмосферу, близкую к домашней, готовила наши национальные блюда, следила, чтобы не отвлекался по пустякам…

В пять лет я выиграл чемпионат Ташкента среди детей до восьми лет, в шесть стал чемпионом Узбекистана по шахматам и серебряным призером Азии в своей возрастной категории.

**– Брат и сестра быстро признали в тебе достойного соперника?**

– Сначала легко обыгрывали, но от партии к партии я держался все дольше. Было приятно слышать от них: «Растет братишка». С 2012 года мы с сестрой Бахорой начали заниматься у международного гроссмейстера Дмитрия Каюмова. Для брата шахматы остались просто любимым занятием на досуге: он выбрал небо, поступил в Джизакское высшее военное авиационное училище. Сестра, можно сказать, уступила мне свой шахматный пьедестал, когда пришлось выбирать, кого возить по соревнованиям. Жить втроем за границей в какой-то момент стало непосильным для нашей семьи. Работал только отец, мама воспитывала детей, вела домашнее хозяйство. Была, конечно, и спонсорская помощь, но... В любом спорте, когда нужно оттачивать мастерство на соревнованиях не только в своей стране, но и за рубежом, важно не разовое участие, а регулярность. Бахора сказала: «Станет выигрывать Нодирбек – я буду счастлива, словно это моя победа». Спасибо сестре!

Дмитрий Каюмов довел меня до гроссмейстерского уровня. Под его началом я стал чемпионом мира среди детей до восьми лет на соревнованиях в словенском городе Марибор.

С 2018 года начал заниматься с международным гроссмейстером Саидали Юлдашевым. С ним выиграли Всемирную шахматную олимпиаду среди юношей до 16 лет. С 2021-го мой наставник – международный гроссмейстер Жахонгир Вохидов.

**– Тебя с победой в 2017 году поздравил лично тогдашний президент ФИДЕ, отметив, что ты «на данный момент являешься вторым самым молодым гроссмейстером в истории шахмат и первым по рейтингу в своем возрасте». Кирсан Илюмжинов пожелал «вдохновения за шахматной доской». За твоей декабрьской игрой следил онлайн в самолете Президент Республики Узбекистан, возвращаясь с неформального саммита СНГ. «Самый молодой чемпион мира» – подобная формулировка способна вскружить голову. Звездой шахмат себя не считаешь?**

– Ни в коем случае. Это самая вредная позиция для любого дела. Начнешь любоваться собой – остановишься на месте, а шахматы не терпят лени и экскурсий во вчерашний успех. Они стремительно развиваются, и нужен титанический труд, чтобы занять достойное место в мировом рейтинге. Благодарен за поддержку главе государства! Он обращается к молодежи «дети мои!» и проявляет отцовскую заботу о подрастающем поколении. Находясь за рубежом, особенно важно сознавать: за тебя болеет твоя страна.

Какие бы победы ни случались в жизни, не стоит задирать нос. Тем более перед одноклассниками. У каждого свое увлечение. Хорошим руководством к действию может служить узбекская пословица «Камтарга камол, манманга завол» («Скромного ждет успех, у зазнайки худой конец»).



*По возвращении в Ташкент Нодирбека встречали как настоящего героя.*

**– Кстати, о школе. Как участие в зарубежных турнирах сказывается на учебе?**

– Безусловно, шахматы отнимают много времени. Спасибо учителям, особенно моему классному руководителю, за помощь. Если что-то непонятно, к ним всегда можно обратиться. И ребята у нас дружные.

**– Можно долго перечислять и анализировать твои победы... А как относишься к поражениям?**

– Конечно, поражения переживаешь тяжело. Настроение меняется. Был маленьким – даже плакал. Взрослеешь – становишься, наверное, более мудрым, но все равно, хоть на короткое время, приходят боль и разочарование. Закрадываются сомнения, не бросить ли это трудоемкое занятие, забирающее столько сил и нервов. Мама в таких ситуациях выступает психологом: «Пусть каждое поражение будет для тебя уроком, открывающим возможности для завтрашней игры. Шахматами занимаются не только ради побед. Они влияют на остроту ума, память, учат принимать самостоятельные решения». Знаете, настроение сразу приходит в норму. Помогает папин бойцовский характер: «Задача поставлена – надо ее выполнить!» А с тренером анализируем каждый промах, чтобы больше его не повторять.



**– В твоих интервью часто фигурирует слово «повезло». Считаешь себя везунчиком?**

– Иногда (со стороны кажется, что победы даются играючи) спрашивают, почему у меня так удачно «складываются отношения» с шахматами. Для себя давно ответил на этот вопрос. Секрет простой: повезло с родителями. Их внимательность не дала угаснуть интересу. Они сделали все, чтобы развить то, что вместе с тренером увидели в мальчишке детсадовского возраста. И еще. Некоторых детей родительский контроль угнетает, а ведь он формирует дисциплину. Нужно видеть в нем особую заботу и быть за нее благодарным.

**– Сейчас, когда у тебя за плечами столько побед, могут поступить предложения о сотрудничестве из-за рубежа. Представляешь себя выступающим за чужую страну?**

– Такие предложения уже поступали. Довольно заманчивые. Мы с родителями их не приняли. Буду играть только за Узбекистан.

**– В 2017-м ты давал интервью, в котором через пять лет обещал войти в список самых сильных шахматистов мира... Тогда кумиром назвал норвежского шахматиста Магнуса Карлсена.**

– А в 2021-м использовал в игре с ним его же тактику.

**– Твой мир наверняка не состоит только из двухцветного поля клеток и всевозможных комбинаций. Чем-то еще увлекаешься?**

– Шахматист обязан для сохранения здоровья заниматься спортом, который нейтрализует мышечное напряжение и проблемы опорно-двигательного аппарата. Ведь приходится долго сидеть во время игры и тренировок. Мозг работает, а все остальное в состоянии дефицита движения. Кроме шахмат, увлекаюсь боксом, легкой атлетикой и плаванием.

Многие удивляются: образ шахматиста никак не вяжется с рингом. А я думаю, между шахматами и боксом есть связь. В обоих случаях необходимо предугадывать возможную тактику соперника, нужна мгновенная реакция.

Плавание же врачи обычно рекомендуют всем. Тренирует нервную и дыхательную систему, сосуды, сердце, все группы мышц, снимает эмоциональную нагрузку. Это что касается двигательной активности. Еще изучаю иностранные языки – английский и арабский. Планирую добавить к ним французский или испанский.




*Чемпион мира с семьей.*

> Шахматы не терпят лени и экскурсий во вчерашний успех. Они стремительно развиваются, и нужен титанический труд, чтобы занять достойное место в мировом рейтинге.

Естественно, чаще всего читаю специальную литературу, разбираю партии известных гроссмейстеров, но это не значит, что игнорирую художественные книги. Моя любимая с детства – «На плечах желтого дива» Худайберды Тухтабаева.

**– Раз уж разговор зашел о художественной литературе, не могу не спросить о твоем отношении к творчеству народного поэта Узбекистана, влюбленного в шахматы. Хорошо знаком с произведениями Эркина Вахидова? «Стихи и шахматы» читал?**

– Знаком не только с произведениями Героя Узбекистана, но и с ним лично. Встретились на открытии Гран-при с участием Рустама Касымджанова и звезд мировых шахмат. Мне тогда семь лет было. Эркин-ака попросил фотографа снять нас вместе для статьи в газету.

А названное вами стихотворение очень точно отражает положение на шахматном поле. Сразу видно, что человек сыграл за свою жизнь множество партий. И не просто играл, а сравнивал два любимых занятия, находил в них общее. И это общее – бой:

***Ход или слово – одна в них основа –***
***битва сердец и сраженье умов.***
***В этой борьбе каждый ход, как и слово,***
***должен быть точен, прекрасен и нов.***

Поэт-шахматист – это здорово! Кто еще может так красиво сказать о шахматах?! Оживить фигуры, которые в начале игры стоят в четыре ряда, – стихотворной строфой... «В этой игре не стареет веками мысли рывок, напряженной, как стих», – определил автор. Как же я с ним согласен по поводу напряжения мысли! Думать, анализировать приходится бесконечно, зачастую даже во сне.

**– Напряжение мысли не ослабевает, когда напротив сидит кто-то из твоих друзей?**

– Мысль у шахматиста всегда должна быть в тонусе. Дружу со многими ребятами: с Нодирбеком Якуббоевым, Шамсиддином Вохидовым, Ортиком Нигматовым, Жавохиром Синдаровым... Друзья-то мы вне турниров, а за шахматной доской – соперники. Спуску друг другу не даем. А разбирая партии, снова становимся товарищами, вместе набираемся опыта.

**– Есть ли у тебя какой-то особо запомнившийся турнир?**

– Каждый чем-то запоминается, потому что везде преодоление трудностей, преодоление себя, интересные повороты в партиях. Наверное, самое яркое восприятие событий в детстве. До сих пор свежи впечатления о мемориале Чигорина, где выполнил третью норму гроссмейстера, и о чемпионате мира, где стал чемпионом среди детей до восьми лет.

**– Зарубежные журналисты сравнивают тебя с Рустамом Касымджановым, называют его преемником. Вспоминается даже такое совпадение: ты родился в 2004-м, в год, когда узбекский гроссмейстер стал чемпионом мира. С этим событием связывают и возрождение интереса к шахматам у нас в стране.**

– Пока рано пользоваться такими сравнениями. Будущее покажет.

**Беседовала**
**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**



*Советник Президента Абдужаббор Абдувахидов вручает шахматисту награду.*



*Нодирбек Абдусатторов во время партии с норвежским гроссмейстером Магнусом Карлсеном.*

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ YOSHLAROVOZI
YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана





КУЛЬТУРА

# COVID-19 искусству не помеха

**Не секрет, что 2021 год был непростым как для нас всех, так и для различных организаций и творческих структур. А каким он стал для Академии художеств Узбекистана?**

Как сообщает пресс-служба академии, в 2021 году осуществлена масштабная работа по развитию национального изобразительного и декоративно-прикладного искусства, укреплению творческих связей с зарубежными художественными структурами, популяризации национальной культуры и искусства путем организации выставок за пределами нашей страны. Многочисленные фестивали, биеннале, международные конференции и другие творческие проекты – яркий тому пример.

Последние два года распространившаяся по всему миру пандемия COVID-19 стала серьезным препятствием для организации культурно-просветительских мероприятий. Несмотря на это, Академией художеств Узбекистана осуществлена масштабная работа. Все проекты ставили перед собой такие задачи, как развитие в стране изобразительного, декоративно-прикладного искусства и сферы дизайна, удовлетворение эстетических потребностей нашего народа, раскрытие и повышение творческого потенциала работников сферы, выявление новых талантов.

Академией организовано около 30 международных выставок. Так, Неделя изобразительного и прикладного искусства, которая прошла в апреле 2021 года, стала настоящим праздником красоты, дружбы и творчества. Третья Ташкентская международная биеннале еще раз продемонстрировала успехи мастеров Узбекистана и зарубежных стран. В рамках масштабного проекта организовано много выставок, мастер-классов, семинаров, конференций, творческих встреч художников, скульпторов, дизайнеров и искусствоведов с представителями подрастающего поколения. Подписание меморандума с зарубежными организациями позволило еще более укрепить творческие контакты. Заслуживает внимания и то, что многие учащиеся образовательных учреждений при Академии художеств успешно участвовали в республиканских и международных выставках, конференциях и конкурсах.



Все это свидетельствует о том, что национальное изобразительное и прикладное искусство находится под защитой государства.

**Назокат УСМАНОВА (УзА)**

# афишка.UZ

## Болеем за Комилжона!

*Что: XXIV зимние Олимпийские игры*
*Где: Пекин (Китай)*
*Когда: 4–20 февраля*



В столице Китая выступят около четырех тысяч спортсменов, которые разыграют 109 комплектов наград в 15 дисциплинах семи видов спорта: биатлоне, бобслее, скелетоне, керлинге, конькобежном спорте, шорт-треке, санном спорте, фигурном катании, хоккее, горнолыжном спорте, лыжном двоеборье, прыжках на лыжах с трамплина, фристайле, лыжных гонках и сноуборде. Пекин станет первым городом, принимавшим как летние, так и зимние Игры.

Нашу страну на важнейших спортивных соревнованиях планеты будет представлять горнолыжник Комилжон Тухтаев. Для 24-летнего спортсмена это вторая Олимпиада. Он выступит в двух дисциплинах – спецслаломе и гигантском слаломе. Комилжону предстоит соревноваться с самыми сильными соперниками из стран – лидеров по зимним видам спорта. К предстоящим Играм узбекистанец готовился в Италии.

## Для тех, кто верит в волшебство

*Что: балет «Щелкунчик»*
*Где: ГАБТ имени А.Навои*
*Когда: 5 февраля*





Премьера «Щелкунчика» состоялась в январе и сразу привлекла всеобщее внимание. Дело в том, что в ГАБТ впервые был организован показ спектакля для незрячих и слабовидящих зрителей. Это стало возможно благодаря системе тифлокомментирования (словесное описание того, что происходит на сцене). Фонд развития культуры и искусства предоставил 200 билетов воспитанникам и педагогам специализированных школ для детей с особыми нуждами, подопечным Общества слепых и благотворительных организаций. Данная акция – еще один шаг на пути создания в Узбекистане инклюзивных условий для людей с инвалидностью.

И вот теперь, в феврале, замечательная новогодняя сказка вновь приглашает в театр всех тех, кто верит в волшебство и любит балет.

## Блеснуть интеллектом

*Что: конкурс «Наследники Мирзо Улугбека»*
*Где: вся республика*
*Когда: февраль – май*



Конкурс проводится на основе постановления «О мерах по развитию деятельности Фонда «Улугбек» по поддержке талантливой молодежи» от 18 января 2022 года. На первом этапе (февраль – март) отбираются по пять сильнейших участников от каждого района (города). На втором (апрель) – в Республике Каракалпакстан, областях и городе Ташкенте выявляются по 20 юношей и девушек, показавших наилучший результат. Имена 100 победителей будут объявлены в мае.

Эти молодые люди получат единовременные денежные премии и дипломы, а также смогут бесплатно обучаться на целевых курсах, организованных фондом.

## Арт-караван из Италии

*Что: выставка «Шелковый путь. Современное искусство и художники Италии»*
*Где: Галерея изобразительного искусства Узбекистана*
*Когда: до 5 февраля*

В экспозиции представлены картины, скульптуры, инсталляции и фотографии итальянских авторов, которые «пройдут» весь маршрут Шелкового пути. Выставка побывала уже во многих городах и странах – в Италии, Украине, Турции, Грузии. После Ташкента отправится в Пекин, затем в Чунцин и Сиань. В итоге арт-караван из Италии преодолеет 30 тысяч километров.



Проект посвящен жизненной силе, характерной для итальянского художественного самовыражения в новейшей истории. Среди 38 представленных работ особенно выделяется одна, которую каждый способен воспринять не только зрительно, но и обонянием. Инсталляция «О-О» Тамары Репетто в прямом смысле источает аромат Шелкового пути и представляет собой 600 капсул, пропитанных парфюмированными эссенциями.

# "MAQSADIMIZ KITOB BOZORINI ZAMONAVIYLASHTIRISH"

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

**— "Asaxiy books"ning o'ziga xosligi va boshqa kitob do'konlaridan ustun jihati nimada?**

— "Asaxiy books"ning asosiy o'ziga xosligi bu zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlikda rivojlanishi. "Asaxiy books"ning deyarli hamma loyihalari, qilayotgan ishlarida internet, innovatsiya, programma, dasturiy ta'minot birinchi o'rinda turadi. Internetning imkoniyatlaridan foydalana olganimiz uchun tez shakllandik, mijozlar bazasini yaratdik, kitoblarimizni ko'proq sota oldik. Barcha harakatimizda internet muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari yoshlardan iborat professional jamoa shakllantiryapmiz. Kitoblarni tayyorlash jarayoni, sifat nazorati 8 ta bosqichdan o'tishi... Bular hammasi xalqaro darajada tashkillashtirilgan. Doim ishimizni yanada mukammal qilishga harakat qilyapmiz.

**— "Asaxiy books" loyihasini yo'lga qo'yishda eng katta qiyinchilik nima bo'lgan?**

— Birinchi navbatda kitob sohasini ichidan bilmaganligimiz uchun kitobni tayyorlashda qo'pol xatolarga yo'l qo'ydik. Yaxshi nazorat qilmay, shoshib, imlo xatolari va yana ba'zi xatolar bilan chiqardik. Lekin asta-sekinlik bilan xalqaro standartga o'tib, jamoani yaxshilab, kitoblarimiz sifati bo'yicha yangi darajaga chiqdik deb o'ylayman.

**— "Asaxiy books"da marketingga e'tibor qay darajada?**

— "Asaxiy books"da marketing asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Chunki yaxshi mahsulot chiqargan bilan zamonaviy dunyoda uni reklama qilmasak, sota olmaymiz. Konsertni, kinoni yo boshqa narsalarni reklama qilishadi. Kitob ham shunday, uni reklama qilib, insonlarning ongiga "kitob o'qish kerak, aynan mana bu kitobni o'qish kerak", degan ma'lumotni joylasangiz maqsadga erishasiz. Agar marketingimiz yaxshi bo'lmasa, kitoblarimizni sota olmaymiz. Kitoblarni sotolmasak va loyihaga pul kelmasa, u yopilib ketadi. Shu sabab biz marketingga doimiy e'tibor beramiz, yangi strategiyalar ishlab chiqamiz, o'ziga xos usullarni topamiz. Ya'ni marketing markazda turadi.

**— Qaysi viloyatlarda kitoblaribgiz ko'proq sotiladi?**

— O'zbekistonda eng ko'p kitob sotib oladigan viloyat va hududlar orasida, shubhasiz, Toshkent shahri birinchi o'rinda turadi. Buxoro, Farg'ona va Namangan viloyatlari, Samarqand shahrida ham kitobga talab juda yaxshi.

**— Kitoblaringizni asosan qanday yosh toifasidagi insonlar xarid qiladi?**

— Bizda kitoblar turli xil yo'nalishlarda chiqarilmoqda. Tadbirkorlar uchun mo'ljallangan biznesga oid adabiyotlarni ko'proq 18-40 yosh oralig'idagi shaxslar o'qiydi. Jahon adabiyotining bestseller va badiiy kitoblarining xaridorlari 20-50 yoshlardagi auditoriya bo'lishi mumkin. Psixologiya yo'nalishidagi kitoblarni asosan, 17-18 dan 35-40 yoshgacha bo'lgan kitobxonlar o'qiydi. Ya'ni xaridorlarimiz 17-18 yoshdan ko'pi bilan 40-45 yoshgacha bo'lgan auditoriya desa ham bo'ladi.

**— Yoshlar yoki talabalar uchun alohida imtiyoz joriy qilinganmi?**

— Talabalar uchun tez-tez aksiyalar uyushtirib turamiz. Masalan o'tgan yili "Asaxiy books" o'zi chop etgan kitoblarga 20 foiz chegirma berdi. 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar va talabalar uchun Toshkent shahridagi kitob do'konlarida alohida aksiyalar bor. Kelajakda ham aksiyalarni davom ettiramiz. Ayni kunlarda barcha uchun aksiya bo'lmoqda: 3 va undan ortiq xarid qilingan kitoblar O'zbekistonning istalgan hududiga bepul yetkazib beriladi.



**— Siz ham qachondir o'qishni istagan kitobingizni topa olmagan vaqtingiz bo'lganmi? Shunda qanday yo'l tutgansiz?**

— Bunday holat tez-tez bo'lib turadi va buni tabiiy qabul qilaman. Hatto Amazonda ham topilmaydigan kitoblar bor. Shunday vaziyatlarda boshqa xalqaro internet do'konlari orqali elektron nusxasini sotib olib, planshetda o'qiyman. Masalan, fransuz kitob do'konlari orqali elektron kitob olib o'qiyman.

**— "Asaxiy books" uchun qaysi yil yoki voqea eng og'ir bo'lgan?**

— "Asaxiy books" uchun eng og'ir voqealardan biri — ikkinchi kitobimiz "Raqamli qal'a" chiqqanida uni senzura qilmaganimiz uchun jamoatchilik juda og'ir qabul qilgan va turli xil ayblar qo'yilgan. O'sha bizga qattiq ta'sir qilgan. Hatto loyihani yopmoqchi bo'lganmiz. Lekin loyiha saqlab qolingan.

## — O'ZBEK YOSHLARI O'QISHI KERAK DEB HISOBLAGAN 10 TA KITOBNI TAVSIYA QILING.

— Tavsiyam:

1. "SOS! Savol ortidagi savol".
2. "Atom odatlar".
3. "Qo'rqma".
4. "Zukkolar va landavurlar".
5. "Diqqat. Chalg'ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari".
6. "Stiv Jobs".
7. "Ibtido".
8. "Yuqumlilik. Mahsulot va g'oyalar qanday ommalashadi".
9. "Sarmoyador".
10. "Samaradorlikning 21 yo'li".




**— Internet do'koni biznesini boshlamaganingizda qanday soha bilan shug'ullangan bo'lar edingiz?**

— Men internet do'kon biznesini boshlashdan oldin turizm sohasida ishlardim. Hozir ham turizm sohasida ishlab yurgan bo'lardim, deb o'ylayman.

**— Yaqin yarim yillikda ilk bor nashr qilinishi rejalashtirilayotgan kitoblar haqida ma'lumot bera olasizmi?**

— Shu yarim yillikda nashr qilinishi kutilayotgan va nashr qilib bo'lingan kitoblar haqida ham aytib berishim mumkin. "Atom odatlar" va "Sarmoyador" kitobi nashrdan chiqdi. Yaqin kunlarda "Bir varaqli marketing" kitobi chiqadi. Marketologlar va marketing sohasidagilar uchun foydali kitob bo'ladi. Bundan tashqari, "Factfulness" va "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" kitoblari nashr qilinadi. 2022-yilda 24 nomda kitob chop etishni reja qilganmiz.

**— Agar sizda imkon bo'lsa, do'kon uchun qanday yangilik va imkoniyat yaratgan bo'lardingiz?**

— Yangiliklar ustida doimiy ishlayapmiz, qo'l yetadigani bor, qo'l yetmaydigani bor. Muhimi istalgan yangilikni dasturiy ta'minotni yaxshilash evaziga qilyapmiz. Deylik, kerakli jamoa, kerakli resurs bo'lganida dasturiy ta'minot va faoliyatimizni yaxshilash uchun sun'iy intellektni tezroq joriy qilgan bo'lardik va o'ylaymanki, yaqin bir-ikki yilda bunga ham yetib kelamiz. Intellektni joriy qilish uchun birinchi navbatda, albatta, bizga resurs kerak bo'ladi. Ko'plab katta dasturchilar jamoasi va katta miqdorda investitsiya qilishimiz kerak. Sun'iy intellekt bo'yicha hozircha bizda mutaxassislar yo'q. Mutaxassislar, asosan Ukraina, Belorus, Hindiston yoki boshqa mamlakatlardan jalb qilinadi. Biz ko'zlayotgan ish mahsulot hamda xizmatlarni alohida shaxsga moslab yo'naltirish imkoniyatini beradi.

**— Barcha rejalaringiz amalga oshishi va "Asaxiy books"ning yanada rivojlanib, kitobxonlarni xursand qilishda davom etishiga tilakdoshmiz.**

— Rahmat!

**Shahribonu RAHMATOVA suhbatlashdi.**

MUNOSABAT

# TA'LIMDAGI ISLOHOTLARNI KECHIKTIRIB BO'LMAYDI



**Intizor QURBONOVA, Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 269-maktab direktori**

***Har sohada, xususan, ta'limda ham rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'lish Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biridir.***

Shu bois keyingi yillarda bu tizimni, ilm-fanni har tomonlama taraqqiy ettirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya tizimi sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarda zamonaviy bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, shuningdek, ta'lim uzviyligi hamda uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilyapti.

Xo'sh, ta'limga qaratilayotgan e'tibor nimalarda ko'rinadi? Avvalo, Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan ko'plab farmon va qarorlar tub mohiyati mana shu sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Chunki ta'limni, maktablarda o'qitish sifatini yaxshilamay, zamon talablari asosida ish tashkil etmay turib ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

Sa'y-harakatlar esa besamar ketayotgani yo'q. Bugun islohotlar ta'limga oid barcha muassasalardagi zamonaviy sharoitlar, o'quvchi-yoshlar va talabalarning ilm-fan bo'yicha qo'lga kiritayotgan yutuqlari ham shundan darak beradi.

Shu yil 26-yanvar kuni davlatimiz rahbari raisligida O'zbekistonning 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Uni kuzatib, o'zim uchun alohida chora-tadbirlar rejasini tuzib oldim. Sababi yig'ilishda har bir sohani, xususan, ta'limni yanada rivojlantirish, o'quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini, bilimini, umuman, ta'lim sifatini oshirib borish masalalariga alohida to'xtalib, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berildi.

Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan navbatdagi yana bir muhim videoselektor yig'ilishi ham maktab ta'limini rivojlantirish masalalariga bag'ishlandi. Bu ham ta'lim-tarbiya masalasi davlatimiz rahbari e'tiborida ekanining yorqin isbotidir.

Qayd etildiki, mamlakat kelajagi, barcha soha va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq. Shu bois oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilar mavqeyini yuksaltirish bo'yicha ko'p ishlar qilindi.

Yangi O'zbekistonimiz yangi davrga qadam qo'ydi. O'zbekistonning 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish ham aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, ta'lim sohasidagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Maktab ta'limida poydevorni mustahkam qo'yishimiz kerak.

Yana bir haqiqat shuki, shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta'lim standartlari, o'quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyotga, hayotga o'rgatmayapti.

— Umuman, o'qitish metodikasi, darsliklari, partadan tortib, binosigacha to'liq qayta ko'rib chiqamiz. Ta'limga, muallimga sharoit yaratmasak, jamiyat o'zgarmaydi. Tuman, viloyat va respublika darajasida Maktab ta'limini isloh qilish kengashlari tuziladi. Respublika kengashiga shaxsan o'zim rahbarlik qilaman. Tuman va viloyat kengashlariga esa hokimlar bosh bo'ladi, — dedi Prezidentimiz.

Ta'limga e'tibor berilmasa, davlat ko'p narsada yutqazadi, taraqqiyotdan ortda qolib, jamiyat esa o'zgarmaydi. Shu bois, yig'ilishda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari har doim inson qadri uchun qayg'uradi. Yig'ilishda yuqori malakali, izlanuvchan, o'zining "mahorat maktabi"ga ega muallimlarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar belgilanishini ta'kidladi. Unga ko'ra, endilikda Xalq ta'limi vazirining jamg'armasi tashkil etiladigan bo'ldi. Mazkur jamg'armaga, dastlab byudjetdan 300 milliard so'm ajratiladi. Jamg'arma mablag'lari ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etayotgan, o'quvchilari yuqori natijalarga erishgan muallimlarga ham beriladi.

Rag'bat har bir soha fidoyilariga kuch-g'ayrat, shijoat beradi. Xuddi shunday, umumta'lim maktablari o'qituvchilariga ham. Biz esa yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, e'tiborga mos ravishda bor salohiyatimiz bilan soha rivojiga hissa qo'shishimiz lozim.

Bugungi kunda bizning maktabimizda o'quvchilarning puxta bilim olishi uchun barcha qulayliklar yaratilgan. 5 muhim tashabbus doirasida o'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sport va san'at yo'nalishlarida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, musobaqa hamda ko'rik-tanlovlar tashkil etish doimiy e'tiborimiz markazida.

# "AYOLLAR DAFTARI"GA

## KIRITILGAN XOTIN-QIZLARNING TADBIRKORLIK LOYIHALARINI QO'LLAB-QUVVATLASHGA 2021-YILDA 1 TRILLION

# 197 MILLIARD SO'M AJRATILGAN

***Joriy yilning 31-yanvar kuni Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasining yalpi majlis kun tartibiga kiritilgan masalalar muhokamasiga bag'ishlangan majlisi bo'lib o'tdi.***

Unda Qo'mita, ekspertlar guruhi a'zolari, tegishli vazirlik va idoralar, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.



Senatorlar 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobotini dastlabki tarzda ko'rib chiqdilar.

Dastur 273 ta banddan iborat bo'lib, uning 117 ta bandida normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, 14 ta qonun, 103 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 156 ta chora-tadbirlar dasturi va boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish belgilangan.

Qayd etilishicha, 2021-yilda davlat dasturi ijrosi doirasida umumiy qiymati 29,5 trillion so'm, 2,6 milliard AQSh dollari hamda 57,5 million yevroga teng loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi. Davlat dasturining jami 273 ta bandidan 243 tasi to'liq bajarilgan.

Shuningdek, tadbirda davlat dasturi doirasida boshqa sohalar kabi xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, gender tenglikni ta'minlash borasida qilingan ishlar ham ko'rib chiqildi.

Senatorlar qayd etganidek, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 6,5 ming xotin-qizga Davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan 100 milliard 341 million so'm miqdorida kredit resurs mablag'lari ajratib berilgan.

Bundan tashqari, "Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil davomida 96 873 nafar xotin-qizga 1 trillion 197 milliard



so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgan. Turmush sharoiti og'ir va nogironligi bo'lgan 1 630 nafar xotin-qiz ro'yxati shakllantirilib, tuman (shahar) huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan xujjatlar tasdiqlanib, arzon uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida uylarning boshlang'ich badalini to'lab berish uchun 31 milliard 643 million so'm ajratilgan.

Qayd etilganidek, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va hal etishga ko'maklashish maqsadida har bir mahallada "Ayollar maslahat kengashi" jamoatchilik tuzilmasi tashkil etilgan.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda 28 ta hududiy va tumanlararo markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika va hududiy Xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari, Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Turmush sharoiti og'ir va nogironligi bo'lgan 7 350 nafar ayol va bolalarga 7 milliard 528 million so'mlik reabilitatsiya vositalari taqdim etish, o'ta og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, nogironligi bo'lgan 500 nafar xotin-qizni jarrohlik yo'li bilan operatsiya qilish uchun ro'yxatlar shakllantirilib, Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasidan 13 milliard so'm miqdorida mablag' ajratilgan.

Minimal gender ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "gender.stat.uz" veb-sayti yaratilib, uni doimiy ravishda yangilab borish yo'lga qo'yilgan.

Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oila qizlari uchun 2 ming 80 ta grant ajratildi. Muhtoj yolg'iz ayollar va boquvchisini yo'qotgan qizlarning oliy ta'lim olish uchun kontrakt to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etildi. Faol xotin-qizlar bilan tizimli ishlash, ularni rahbarlikka tayyorlash maqsadida ta'lim muassasalarida 1029 nafar iqtidorli qizning zaxirasi shakllantirilgan.

Muhokamalar so'nggida Qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.



O'zA

MUTAXASSIS FIKRI

# TIBBIYOT INSONNI, VETERINARIYA INSONIYATNI ASRAYDI

***Chorvachilik Markaziy Osiyo sharoitida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ayniqsa, yurtimizda chorvachilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilyapti. Chorva mollarini ko'paytrish va ulardan unumli foydalanishda veterinariya tizimi muhim o'rin tutadi. Shunga muvofiq ravishda, mamlakatimizda veterinariya sohasi isloh etilib, chorvada uchraydigan kasalliklarning oldini olish va ularni o'z vaqtida aniqlash soha xodimlarining dolzarb vazifasiga aylanmoqda.***





So'nggi besh yilda chekka-chekka hududlarda ham veterinariya xizmat ko'rsatish sifati oshdi. Malakali kadrlarni tayyorlash, mamlakatimizda epizootik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qator yutuqlarga erishilmoqda. Bunda jonkuyar veterinariya xodimlarining ham mehnati talaygina.

Bugungi kunda bizning Chiroqchi tumanimizda 15 ta veterinariya uchastkasi faoliyat olib bormoqda. Sohaga yosh va yuqori malakali veterinarlar avlodi kirib kelyapti. Albatta, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishda yosh veterinarlarga tajribali ustozlar ko'magi doimo zarur. Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i **Moyli Haydavalov** ana shunday jonkuyar ustoz. U yosh soha xodimlariga kasb sir-asrorini o'rgatishdan aslo erinmaydi. "Tumanimizdagi mahallalarda chorva mollari va itlarda uchraydigan yuqumli kasalliklarning oldini olish, epizootik barqarorlikni ta'minlash bizning eng asosiy vazifamiz, — deydi ustoz navbatdagi saboqda bizga hayvonlarda uchraydigan kuydirgi (Sibir yarasi) kasalligi haqida tushuntirish berar ekan. — Bu kasallik qadimdan insonlarga ma'lum bo'lgan. U haqda Abu Ali ibn Sino, Gippokrat ham o'z asarlarida yozib qoldirgan. Sporalar juda chidamli bo'lib, suvda yillab, tuproqda o'n yillab saqlanishi mumkin. Kuydirgi bilan barcha turdagi hayvonlar, hatto, odamlar ham kasallanadi. Odamlarga bu kasallik hayvonlardan (hayvonni so'yish, go'shtini nimtalash vaqtida) yuqadi. Odatda, bu kasallik veterinariya xodimlarida, ya'ni hayvonlar bilan bevosita ishlaydigan kishilarda ko'proq kuzatiladi. Shuning uchun vaksinatsiya davomida doimo himoya qo'lqoplari va antiseptik vositalardan foydalaning".

Darhaqiqat, kuydirgi zooatroponoz, o'tkir infeksion kasallik. Organizmning og'ir intoksikatsiyasi, isitma, sentitsemiya, karbunkullar paydo bo'lishi va ichak, ko'proq o'pkaning zararlanishi bilan kechadi. Teri va teri osti to'qimalarida serozli va gemoragik shishlar paydo bo'ladi. Kasallikning yashirin davri 1-3 kun davom etadi. O'tkir holatlarda hayvon bir necha soat ichida o'ladi. Kasallangan jonivorning burun, og'iz teshiklaridan qon aralash ko'pik oqadi, tana harorati 41-42 darajaga ko'tariladi, nafas olishi va yurak urishi tezlashadi, holsizlanadi, ishtaha yo'qoladi va ko'pincha yotadi.



Ayni paytda tumandagi barcha veterinariya uchastkalarida kuydirgi hamda boshqa yuqumli va o'ta yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinatsiya ishlari qizg'in bormoqda. Birgina Ko'kdala uchastkasi hududidagi mahallalar — O'tamayli, Ko'kdala, Oltinboshoq va Oltin dala mahallalarida chorva firmalari va aholiga tegishli chorva mollari, itlar navbatma-navbat emlanmoqda.

Yosh veterinar, veterinariya uchastkasi mudiri Hayotjon Ergashev o'ziga yuklatilgan vazifani astoydil bajarib kelayotgan hamkasblarimizdan biri. Maqsad: "Tibbiyot insonni, veterinariya insoniyatni asraydi" shiori ostida, xalq salomatligini asrash va chorvachilikni rivojlantirishdir. Shu orqali mahalla fuqarolariga o'z uylarida sog'lom sifatli go'sht va sut mahsulotlari yetishtirishga hissa qo'shilmoqda.

**Erkinjon ABDULLAYEV,**
**Ko'kdala veterinariya uchastkasi xodimi**

SAN'AT OLAMI



# Ko'rgazmada talabalar ijodi

***Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatura san'ati muzeyida yosh miniaturachi rassomlarning "Sharq nafis san'ati yoshlar nigohida-IV" ko'rgazmasi tashkil etildi.***

An'anaviy ko'rgazmada Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutining yosh o'qituvchilari, 19 nafar bakalavr, magistrantlarning ijod namunalari taqdim etilgan. Namoyishdan Isfaxon, Tabriz, Hirot, Hind maktablaridan nusxalar, an'anaviy-zamonaviy miniaturalar, tarixiy shaxslar, hunarmandchilik, ma'naviy va madaniy hayot hamda turmush tarzimiz tarixidan lavhalar, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor asarlariga bag'ishlangan illyustratsiyalar o'rin olgan.

**Hasan ABDUNAZAROV**



№ 5 (16459)
2022-YIL
2-FEVRAL
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI

IQTIDORLI YOSHLAR — MAMLAKAT TAYANCHI

# Yorqin kelajak BIZNING QO'LIMIZDA

***O'zbekistonimizda ta'limni rivojlantirish sohasida ko'plab islohotlar ko'zga tashlanib bormoqda. Bu yo'nalishda yoshlarimiz ham abjirlikni qo'ldan boy berishmayapti. Biz, yoshlarning zamonaviy ta'limga munosabatimiz Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Yoshlar forumi"da Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov bilan uchrashuvda savol va takliflar asnosida o'z ifodasini topdi.***



Shunday ekan, bizning Ho'qand zaminida ham hali yosh bo'lishlariga qaramay, yurtimiz ravnaqi yo'lida, o'sib kelayotgan yoshlarning ta'lim olishi uchun yana bir qulay imkoniyat sifatida "Birlashib, biz katta kuchmiz" shioriga tayangan holda o'zlarining ilk qadamlarini "Yorqin kelajak akademiyasi" orqali qo'ydilar.

Uning zamiridagi maqsadlar esa ulkan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasining bundan keyingi rivojlanishi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarga javoban talabalar va yoshlar bilan hamkorlikda o'z hissamizni qo'shishga harakat qilish niyatida "Yorqin kelajak akademiyasi" nodavlat ta'lim muassasasi rasman 2020-yil 1-maydan o'z faoliyatini yurita boshladi. Muassasa qisqa davr davomida yuqori pog'onalarni zabt etayotgani o'quvchilar sonining ko'payishiga zamin yaratdi. Avval, kimyo, biologiya, tarix ona tili va matematika fanlari asosida tayyorgarlik ko'rgan 5 nafar abituriyentdan beshalasi ham oliy ta'lim muassasining baxtli talabalariga aylangan. Hozir o'quvchilar qamrovi 50 nafardan, o'qituvchilar esa 20 nafardan oshgan. Albatta, bu boshlanishi.

Undan tashqari, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qo'qon shahar kengashi tavsiyasi asosida yoshlar yetakchilari tomonidan tavsiya etilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalar, "Yoshlar daftari"ga kiritilganlar, "Ayollar daftari"da ro'yxatda turuvchining farzandlari "Yorqin kelajak akademiyasi"da 6 oy muddatda bepul o'qishi munkin. Bunday o'quvchilar 20 nafarni tashkil etadi.



Akademiyada fanlar va chet tillarni o'qitishdan tashqari, mental aritmetikaga ham alohida urg'u berilgan. Mashg'ulotlarga 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar jalb etiladi. Bu bilimlarni yoshlarga o'rgatish uchun Qo'qon davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim fakultetining 2-bosqich talabasi Sarvinoz Husanova taklif etilgan. Yosh o'qituvchimiz mental arifmetika bo'yicha dastavval maktabgacha ta'lim maskanlarida, boshlang'ich va o'rta ta'lim dargohlarida, hozir esa "Yorqin kelajak akademiyasi"da dars olib borayotganini aytadi.

Mental aritmetika bizga nega kerak? Yosh muallimning aytishicha, mental arifmetika insonning ichki qobiliyatlarini ochib beradi. Inson bu qobiliyatini payqagandan so'ng qo'rqmasdan iste'dodini yuzaga chiqara oladi. Masalan, Xitoyda mental arifmetika XI asrdayoq keng tarqalgan. Xitoyliklar farzandlarida bolalikdan ixtirochilik ko'nikmasini shakllantirib boradi. Buning mevasi o'laroq, bu mamlakatda deyarli hamma narsa ishlab chiqariladi.

— Agar O'zbekistonimizda ham mental arifmetika rivojlansa, bolalar 6 yoshdanoq ixtiroga qo'l urishi mumkin, — deydi Sarvinoz Husanova. — Shu maqsadda o'zimizning bor bilim, imkoniyatimizdan foydalanib, bu ishga jiddu jahd bilan kirishdik.

Ochig'i, mental arifmetika mashg'ulotini kuzatar ekanman, men ham bu sohani o'rganishga qiziqdim hamda ilk kundayoq u yerning o'quvchisiga aylandim. Bir-biridan zavqli, foydali o'yinlar mental arifmetikaga ishtiyoqimizni oshirib yubordi. Bu bilimni o'rganish uchun biroz harakat, tezkorlik va ozgina sabr kifoya. Axir, bejiz aytmaydilar: "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir". Agar yoshlikdan ilm qulfini ochishga tirishsak, nafaqat ongimizda umr bo'yi qoladigan naqshga aylanadi, balki hayot yo'limizning bejirim bezaklari ham bo'ladi.

**Yoqutxon SODIQJONOVA,**
**O'zJOKU 2-bosqich talabasi**



ESHITDINGIZMI?!

# SAMARQANDDA ilk ovozli svetofor O'RNATILDI

***Ko'zi ojiz piyodalar uchun qulaylik yaratish maqsadida Samarqand shahridagi Sadriddin Ayniy ko'chasida ilk bor "ovozli svetofor" o'rnatildi.***



– Respublika Ichki ishlar vazirligi tomonidan tuzilgan ishchi guruhi mamlakatimizdagi ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan bolalar maktab-internatlariga yaqindan yordam berish maqsadida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqqan, – deydi Samarqand viloyati IIB axborot xizmati rahbari J.Sagdullayev. – Shu asosida viloyatimizda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqinda viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i Samarqand shahridagi 59-ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyati bilan tanishib, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashganda ular maktab-internat oldidagi transport vositalari serqatnov yo'ldan o'tishda qiynalishayotganini bildirib, ushbu masalada yordam so'ragandi.



Viloyat IIB yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan o'rnatilgan "ovozli svetofor" piyodalarga har bir chiroq yongani va harakatlanish mumkin yoki mumkin emasligi haqida ovozli xabar berib ogohlantiradi.

– Maktabimiz oldidagi katta yo'ldan o'tish biz uchun ko'p noqulaylik tug'dirardi, qo'rqardik, – deydi maktab-internat o'qituvchisi Zokir Mahamatov. – Chunki shu paytgacha avtomashinalarning ovozini eshitgan holda, ularning yaqin yoki uzoqdaligini chamalab yo'lni kesib o'tardik. Bu svetofor biz va o'quvchilarimiz uchun katta qulaylik bo'ldi.

**G'.HASANOV,**
**O'zA muxbiri**

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
MUASSIS: O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI
BOSH MUHARRIR: Hamza ABDULLAYEV
Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.
MAS'UL KOTIB: Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR: Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIHLAR: Shahribonu RAHMATOVA Qirmizoy HAKIMOVA
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.
TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.
"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-255
Adadi – 760
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.00